

Qudratov Mexroj Pardaql o'g'li
Xalqaro innovatsion universiteti
pedagogika kafedrası o'qituvchisi
mqudratov1995@gmail.com

YOSH AVLODNI MUMTOZ KUY VA QO'SHIQLAR VOSITASIDA MA'NAVIY- AXLOQIY VA ESTETIK TARBIALASH YO'LLARI

Annotatsiya. *Мазкур мақоллада мумтоз куй-қо'шиқлар орқали о'қувчиларнинг ма'naviyatini yuksaltirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda estetik tafakkurini shakllantirish masalalari yoritilgan.*

Shuningdek, maktablarda mumtoz kuy-қо'shiqlarni o'rgatish orqali o'quvchilar ongi va ma'naviyatiga ta'sir etishning o'ziga xos xususiyatlari, musiqiy tarbiyaning shaxs kamolotidagi ahamiyati nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: *musiqa, ma'naviyat, musiqiy tarbiya, ma'rifat, ma'naviy ozuqa, mumtoz musiqa, milliy an'ana, milliy kuy-қо'shiqlar, vatanparvarlik, tarbiya, axloq, shaxs kamoloti.*

ПУТИ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОГО И ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ СРЕДСТВАМИ КЛАССИЧЕСКИХ МЕЛОДИЙ И ПЕСЕН

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы повышения духовности учащихся посредством классической музыки, воспитания их в духе патриотизма и формирования эстетического мышления.*

Также теоретически и практически анализируются особенности воздействия на сознание и духовность учащихся посредством преподавания классической музыки в школах, а также значение музыкального образования в развитии личности.

Ключевые слова: *музыка, духовность, музыкальное образование, просвещение, духовное питание, классическая музыка, национальные традиции, национальные песни, патриотизм, воспитание, нравственность, развитие личности.*

WAYS OF SPIRITUAL, MORAL AND AESTHETIC EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION THROUGH CLASSICAL MUSIC AND SONGS

Annotation. *This article discusses the issues of raising the spirituality of students through classical music, educating them in the spirit of patriotism, and forming their aesthetic thinking.*

Also, the specific features of influencing the consciousness and spirituality of students through teaching classical music in schools, and the importance of musical education in personal development are analyzed theoretically and practically.

Key words: *music, spirituality, musical education, enlightenment, spiritual nourishment, classical music, national tradition, national songs, patriotism, upbringing, morality, personal development.*

Ma'lumki, har bir xalqning o'z ma'naviyati, ma'rifati va estetik qadriyatlari borki, o'sha xalq ma'naviy merosi avloddan avlodga o'tadi va xalqning qadriyatiga ayladadi. Aynan o'zbek xalqining musiqa san'ati ham o'tmishdan meros bo'lib qolgan qadriyatlaridan tortib, bugungi kunda shakllanib borayotgan zamonaviy mafkurasini to'liq anglash imkonsizdir. Musiqa san'ati rivojlangan mamlakatlarda faqat badiiy ifoda vositasi sifatida emas, balki boy madaniy meros va tarixiy xazina sifatida e'tirof etiladi. Shu jihatdan uning tarbiyaviy ahamiyati alohida e'tiborga loyiqdir: musiqa nafaqat estetik didni rivojlantiradi, balki insonning tafakkur doirasini kengaytiradi, nafosatga bo'lgan sezgirligini oshiradi va atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok

etish, qadrlash hamda ulardan ruhiy mamnuniyat olish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu sababli, musiqa san'ati orqali tarbiyalash insonning ma'naviy kamoloti va estetik tafakkurini rivojlantirishning eng murakkab va nihoyatda samarali yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 17-noyabrda "Milliy mumtoz musiqamiz hisoblanmish, maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori qabul qilindi. Bunga asoslanib maqomchilik san'ati orqali madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, avvalo yosh avlodlarimizni yuksak insoniy tuyg'ular ruhida tarbiyalash, uning estetik didi va tafakkurini shakllantirish uchun maqom san'ati ustida ilmy-izlanishlar olib borilmoqda [1]. Uni keng jamoatchilikga targ'ib qilish, yoshlarga uning tub mohiyatini anglash va foydalanishni o'rgatish vazifa qilib qo'yilgan. Shuning uchun mamlakatimizda talaba-yoshlarning musiqiy dunyoqarashi va madaniy saviyasini yuksaltirish, mumtoz musiqa san'ati orqali o'sib kelayotgan yosh avlodni yetuk shaxs etib tarbiyalash masalasi davlat dasturi sifatida ko'rilmogda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2022-yildagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" gi qarorida umumiy o'rta ta'lim maktabi bitiruvchilarining kamida bitta milliy musiqa cholg'usini ijro eta olganlik to'g'risidagi bahoni shahodatnomaga kiritish, musiqa o'qituvchilarining kamida uchta milliy musiqa cholg'usini bilishi, maktablarda havaskor ansambllarning tashkil etilishi, yangi darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish, talabga javob bera oladigan malakali kadrlarni tayyorlash masalalari nazarda tutilgan [2].

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Komil insonni musiqiy tarbiyalash va voyaga yetkazish jarayoni - musiqiy pedagogik faoliyatning uzluksiz jarayoni bo'lib, axborot texnologiyaning so'nggi namunalari doirasida amalga oshiriladigan hamda tarbiyalanuvchilarning ijobiy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadlariga qaratilgan tashkiliy faoliyatdan iborat. O'zbek xalqining musiqa merosida xalq qo'shiqlari qatorida bebaho ijod namunasi bo'lgan mumtoz kuy-qo'shiqlar ham salmoqli o'rin egallaydi.

O'zbek mumtoz qo'shiqlari milliy qo'shiqchilik rivojini yuksaltirishda eng muhim asos bo'lishi bilan birga shaxs, xususan, o'sib kelayotgan o'quvchi-yoshlarni badiiy-estetik, madaniy, ma'naviy tarbiyasida ham yuksak ta'sirchanlik kasb etadi. Shuni aytish joizki, o'zbek xalq mumtoz qo'shiqlari negizida xalq og'zaki ijodi yoki mumtoz she'riyat namunalari (aksariyat g'azal janriga oid she'rlar)ga xos adabiy matn yotadi. Bundan tashqari hozirgi zamonaviy bastakorlarning ham ko'pchiligi xalq qo'shiqlarini, mumtoz va maqom kuy-qo'shiqlari ohanglaridan ijodiy ilhomlanib yangi kuy-qo'shiqlar yaratib kelishmoqda. Bu esa mumtoz kuy - qo'shiqlarimiz boy imkoniyatlarga egaligidan dalolat beradi. Shu boisdan, haqiqiy musiqa namunalari, milliy musiqa sadolari va ularda ilgari surilgan ezgu g'oyalarni yosh avlod ongiga singdirib borish yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ijobiy natijalarni beradi. Zotan, musiqaning ajoyib sehrli kuchi, mo'jizakor ta'siri haqida fikr yuritgan Abu Nasr Forobiy "Ilmlarning kelib chiqishi to'g'risida" asarida shunday deydi: "Bu ilm shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan odamni tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xalqni mukammal qiladi va muvozanatini saqlab turadi". Musiqa tarbiyaning tizimliliigi esa tarbiyaviy jarayonda umumiylikni tashkil etadi, chunki musiqiy tarbiyaviy jarayonlar bir nechta tizimlarning turli xususiyatlaridan iborat. Aytish mumkinki, musiqa tarbiyaviy jarayonlar bu tarbiyaviy tizim holatlarining ketma - ket almashinuvidir.

Musiqiy tarbiyaviy jarayonni tizimli ravishda ko'rib chiqish, musiqa tizim va jarayonning tuzilmaviy xususiyatlarini, shunindek, ular o'rtasidagi funktsional aloqalarning ajratib ko'rsatilishini ifodalaydi. Musiqa o'qituvchi uchun har bir musiqiy tarbiyaviy uslubning o'ziga xos xususiyatini, mohiyatini, birining boshqasiga ta'siri natijasida o'zgarishini anglab yetishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek mumtoz kuy va ashulalari shu jumladan maktab o'quvchilarning musiqiy ongi, fikrlashi va dunyo qarashini kengaytirish uchun asosiy tarbiya omili hisoblanadi [3]. Bu borada olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki mumtoz musiqamiz ya'ni bir necha asrlik tarbiyaviy ahamiyatga ega durdona asarlar o'quvchilarni yaxshilik sari yetaklashi va ularga boy madaniy merosimiz xalqimizning o'tmishi, qadim madaniy meroslarimiz haqida

chuqur mohiyatga ega ma'lumot berib ularni barkamol shaxs sifatida kamolga yetishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Inson dastlabki estetik tarbiyani asosan maktab muhitida oladi. Aynan shu dargohda u bir umr davomida go'zallikni his etishni, san'at asarlarini anglash va baholashni, shuningdek, badiiy ijod bilan tanishishni o'rganadi. Umumta'lim maktabidagi musiqa madaniyati darslari o'quvchilarda musiqani tinglash va idrok etish, mashq va qo'shiqlarni kuylash, musiqa savodxonligini o'zlashtirish, shuningdek, ritmik jo'r va ijodiy musiqiy faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish orqali muhim musiqiy pedagogik vazifalarni bajaradi. Jumladan, bular qatoriga bugungi kunda ommaviy G'arb musiqa madaniyatidan olingan, ohangi ma'nosiz, buzilgan va bema'ni qo'shiqlar ta'siridan o'quvchilarni himoya qilish kiradi. Shuning uchun o'quvchilarni barcha yo'nalish va janrdagi musiqa asarlari, xususan, xalq qo'shiqchiligi namunalari bilan tanishtirish, ularning tavsiya etilgan badiiy yuksak namunalari o'rganish jarayonini metodik jihatdan takomillashtirish zarur. Bu ishning boshlanishi barcha bolalar o'qishi shart bo'lgan umumta'lim maktabidan amalga oshirilishi ma'qul hisoblanadi.

Pedagogik tajribalar va tadqiqotlar tahliliga ko'ra umumiy musiqiy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning aksariyati amaliy cholg'u ijrochiligi va vokal san'ati (xonandalik) ko'nikmalariga yetarlicha ega emas. Jumladan, ayrim o'qituvchilar maktab musiqa darsliklarida maqomlar haqida berilgan nazariy ma'lumotlarni bilishiga qaramay, berilgan parchalarni amalda ijro etishda qiynaladi, sababi ularda nota savodi yetarli emas. Ko'plari dars davomida faqat matnlarni yozdirish yoki audio yozuvlarini tinglatish orqali mashg'ulotlarni o'tkazish bilan cheklanishadi. Hatto musiqa bakalavr diplomi mavjud bo'lgan o'qituvchilar orasida ham maqom san'ati bo'yicha yetarli nazariy bilim va amaliy ijro ko'nikmalariga ega bo'lmaganlar uchraydi. Ular darslikdagi matnlarni o'qib yozdirishdan nariga o'ta olmaydi. Shu bilan birga, musiqa madaniyati darslari DTS (davlat ta'lim standarti) talablari asosida, nafaqat maqomlar balki boshqa barcha musiqa materiallarini chuqur biladigan va darslarda samarali foydalanadigan malakali o'qituvchilar ham mavjud. Biroq, ularning soni juda ozchilikni tashkil etadi.

O'zbek mumtoz musiqasi shunday keng ko'lamli, uning qamrab olmagan mavzulari kamdan-kam topiladi. Xalq o'zi kuylayotgan ashulalarga, dostonlariga, maqomlari va cholg'u kuylariga insonni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashga ta'sir ko'rsata oluvchi tarbiyaviy mavzularni singdira olgan. Ushbu musiqa namunalarini orqali xalq yuragidagi dardlarini, mehr-muhabbatini, ishqiy kechinmalarni, orzu-istaklarini bayon qilib kelgan. Ta'kidlash lozimki, o'rta ma'lumot beruvchi musiqa ta'lim tizimida o'zbek mumtoz musiqasini alohida fan sifatida o'rganish birinchi marta amalga oshirilmoqda. Bu yosh avlodning o'tmishni, o'zining boy merosini mukammalroq bilishi va idrok qilishi uchun zamin tayyorladi [4]. Mumtoz musiqamizni o'rganish, uni amalda o'zlashtirish musiqa va san'at kollejlari hamda akademik litseylar talabalarining milliy g'ururini shakllantirish uchun asosiy omillardan biri sifatida muhim tarbiyaviy vosita ham hisoblanadi.

Bugungi globallashtirish jarayonida o'quvchi-yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda musiqiy tarbiyani dastlab oilaviy muhitda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Chunki bolaning shaxsiy rivojlanishi va kamol topishida oiladagi va maktabdagi ijtimoiy-psixologik muhitning ta'siri nihoyatda katta ahamiyatga ega ekanligini anglashimiz zarur. Bolaning eng muhim individual xususiyatlari aynan shu muhitning o'zaro ta'siri orqali shakllanadi. Bu jarayonda ota-ona va oila a'zolari bilan bir qatorda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, shuningdek, san'at va madaniyatga bo'lgan qiziqish ham muhim rol o'ynaydi.

Yaxshi oilaviy muhitda tarbiyalangan bolaning hayotiy tajribalari, turli voqea-hodisalar, urf-odatlar hamda san'at va madaniyatga oid taassurotlari odatda ijobiy xususiyatlar bilan boyitiladi. Masalan, oilaviy muhitda birgalikda televizor ko'rish, konsert va teatr tomoshalariga tashrif buyurish, o'z taassurotlarini o'rtoqlashish kabi muloqot shakllari bolalar dunyoqarashini kengaytiradi, hayotiy voqea-hodisalarni aks ettiruvchi badiiy adabiyot va musiqa asarlarini chuqur anglashga, shuningdek, badiiy va g'oyaviy idrokni rivojlantirishga, estetik did-farosatini tarbiyalashga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, musiqiy tarbiya insonning ongi, his-

tuyg'ulari, tasavvuri, e'tiqodi, dunyoqarashi, xatti-harakatlari va ахлоқига uzluksiz va ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aynan shu jihatdan musiqiy tarbiya bolaning go'zallik va xunuklikni, yuksaklik va tubanlikni, shodlik va kulfatni idrok etish qobiliyatini shakllantiradi va uni hayotiy tajribaga tayyorlaydi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarni tahlil qiladigan bo'lsak, hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa tarbiyasi, o'quvchi shaxsiyatining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadigan san'at, ma'naviy meros hisoblanadi. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib umrbod musiqadan zavq oladi va cheksiz ma'naviy kuch-qudratga ega bo'ladi. Shu sababli musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, insonni atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga, ularni qadrlashga o'rgatadi, insonda yuksak va ma'naviy dunyoqarashni shakllantiradi. Bu jarayonda yosh avlodning shaxs sifatida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlarining individual ifodasi, ijtimoiy ahamiyatga molik xususiyatlar namunasi, inson ijtimoiyligi shakli ekanini nazarda tutadigan bo'lsak, bu borada musiqaning ahamiyati yana bir bor oydinlashadi va musiqiy ta'lim tizimida yangicha yondashuv borasidagi izlanishlarimiz zamonaviy axborot - pedagogik texnologiyalarini joriy qilish bilan bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda.

Demak, ta'lim muassasalarida musiqiy tarbiya mashg'ulotlarida milliy musiqiy qadriyatlardan samarali foydalanish, kuy-qo'shiqlarni jonli va ta'sirchan ko'ylash orqali musiqa o'quv - tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishga erishish mumkin. Bu esa o'quvchi-yoshlarni har tomonlama, jumladan musiqiy tomondan tarbiyalash va rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 17.11.2017 yildagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori PQ-3391-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 02.02.2022 yildagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risidagi" qarori PQ-112-son
3. R.Yunusov "O'zbek xalq musiqa ijodi" T.,1992 y, 2-12 bet.
4. Ярашев, Ж. Т. (2021). Музыкальная терапия. Scientific progress, 1(5), 641-647.